



YASHIL IQTISODIYOT VA INVESTITSİYALAR: EKOLOGIK BARQARORLIKKA ERISHISHDA MOLİYAVIY MEXANIZMLAR

Ilmiy rahbar: Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qo'shma ta'lim dasturlarini
muvofiglashtirish markaziboshlig'I, Innovatsion Menejment kafedrası dotsenti Phd.
g.ibragimov@tsue.uz

Abduraxmanov Orifjon Raxmatjon o‘g‘li

TDIU, Menejment fakulteti, Korporativ boshqaruv yo‘nalishi

4-bosqich KB-61 guruh talabasi

o.abdurakhmanov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotning rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati hamda ekologik barqarorlikka erishishda moliyaviy mexanizmlarning roli tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi va ekologik inqiroz global iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy tahdid tug‘dirayotganligi sababli, an‘anaviy iqtisodiy modellarni yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Maqolada xalqaro tajriba, jumladan, Yevropa Ittifoqi, Skandinaviya mamlakatlari hamda Osiyo davlatlari misolida yashil investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari solishtirma tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik ma‘lumotlar, xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy kapital oqimlari yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda eng samarali moliyaviy vositalardir. O‘zbekiston misolida esa qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish, “Yashil makon” tashabbusi va investitsiya oqimlari tahlil qilindi. Xulosa o‘rnida, moliyaviy mexanizmlarning samarali qo‘llanilishi ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishda hal qiluvchi omil ekanligi ta‘kidlandi.



Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiyalar, ekologik barqarorlik, moliyaviy mexanizmlar, qayta tiklanuvchi energiya, yashil obligatsiyalar.

Аннотация

В настоящем исследовании анализируется значение инвестиций в развитие «зелёной» экономики и роль финансовых механизмов в достижении экологической устойчивости. В последние годы изменение климата и экологический кризис представляют серьёзную угрозу глобальному экономическому развитию, что обуславливает необходимость обновления традиционных экономических моделей. В статье представлен сравнительный анализ международного опыта, в том числе механизмов финансирования «зелёных» инвестиций на примере Европейского союза, стран Скандинавии и Азии. В качестве методологии исследования были проанализированы статистические данные, отчёты международных финансовых институтов и нормативно-правовые документы. Результаты показали, что наиболее эффективными финансовыми инструментами для устойчивого развития «зелёной» экономики являются «зелёные» облигации, государственные субсидии, международные финансовые институты и потоки частного капитала. В случае Узбекистана анализировались финансирование проектов возобновляемой энергетики, инициатива «Зелёное пространство» и инвестиционные потоки. В заключение отмечено, что эффективное использование финансовых механизмов является решающим фактором обеспечения экологической устойчивости, стимулирования экономического роста и укрепления международной интеграции.

Ключевые слова: зеленая экономика, инвестиции, экологическая устойчивость, финансовые механизмы, возобновляемая энергетика, зеленые облигации.

Abstract

This study analyzes the importance of investments in the development of a green economy and the role of financial mechanisms in achieving environmental



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

sustainability. In recent years, climate change and the environmental crisis have posed a serious threat to global economic development, and there is a need to update traditional economic models. The article provides a comparative analysis of international experience, including the mechanisms for financing green investments in the case of the European Union, Scandinavian countries, and Asian countries. Statistical data, reports of international financial institutions, and regulatory and legal documents were analyzed as a research methodology. The results showed that green bonds, state subsidies, international financial institutions, and private capital flows are the most effective financial instruments for the sustainable development of a green economy. In the case of Uzbekistan, financing of renewable energy projects, the "Green Space" initiative, and investment flows were analyzed. In conclusion, it was noted that the effective use of financial mechanisms is a decisive factor in ensuring environmental sustainability, stimulating economic growth, and strengthening international integration.

Keywords: green economy, investments, environmental sustainability, financial mechanisms, renewable energy, green bonds.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyot oldida eng keskin muammolardan biri sifatida iqlim o‘zgarishi va ekologik inqirozlar ko‘tarilmoqda. Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishi oqibatida 2050-yilga borib global yalpi ichki mahsulot 11–18 foizgacha qisqarishi mumkin.¹ Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘rishni sekinlashtiradi, balki ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ham xavf ostiga qo‘yadi. Shu sababli, iqtisodiy faoliyatni ekologik toza va resurslarni tejovchi model asosida qayta tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotga o‘tishning nazariy asoslari keng yoritilgan. Masalan, Skandinaviya davlatlari, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari tajribasi yashil iqtisodiy o‘rishga o‘tishda investitsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatadi. Xalqaro moliyaviy institutlar (GCF, EBRD, ADB) tomonidan ishlab

¹ <https://www.weforum.org/stories/2021/06/impact-climate-change-global-gdp/>



chiqilgan mexanizmlar qayta tiklanuvchi energiya, yashil transport va chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda samarali qo'llanmoqda. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda moliyaviy mexanizmlarning milliy sharoitlarda qo'llanishi, xususiyl sektorini jalb etish imkoniyatlari va O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moslashuvchan yondashuvlar yetarlicha o'rganilmagan. Demak, ilmiy adabiyotlarda "bo'shliq" – yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning mahalliy mexanizmlarini, ularning samaradorligini va xalqaro tajriba bilan taqqoslashni chuqur tahlil qilish ehtiyojida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu masalaga qaratilgan: yashil iqtisodiyot va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish, ekologik barqarorlikka erishishda qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarni o'rganish va O'zbekiston misolida ularning samaradorligini baholash. Tadqiqotning asosiy gipotezasi shundan iboratki, samarali moliyaviy vositalarni joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Ma'lumotlar manbasi sifatida Jahon banki, IMF, EBRD, ADB, OECD va GCF hisobotlari hamda O'zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Statistik, taqqoslama va trend tahlil usullari yordamida yashil investitsiyalar hajmi, moliyaviy oqimlar va ularning iqtisodiy ta'siri o'rganildi. Shuningdek, xalqaro tajriba O'zbekiston misolida qiyoslab baholandi va moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, xususan, ekologik barqarorlikka erishishda moliyaviy mexanizmlarning ahamiyati o'rganildi. Tadqiqotda miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), OECD va Green Climate Fund kabi xalqaro moliya institutlarining hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Vazirlar Mahkamasi



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

qarorlari, “Yashil makon” dasturi, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun va Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlari asos qilib olindi. Bundan tashqari, so‘nggi 10 yil ichida xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, dissertatsiyalar hamda ilmiy konferensiya materiallari tahlil qilindi. Tadqiqot ob‘ekti sifatida yashil iqtisodiyotning moliyalashtirish mexanizmlari belgilandi, ya‘ni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil transportni keng joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar chuqur o‘rganildi. Namuna sifatida O‘zbekistonda 2017–2024-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan yirik loyihalar, jumladan, Navoiy va Samarqand viloyatlarida barpo etilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari, Toshkent shahrida yo‘lga qo‘yilgan elektrobus transport tizimi hamda chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi tahlil qilindi. Tavsifiy tahlil asosida mavjud statistik ko‘rsatkichlar umumlashtirildi, masalan, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya ulushining 2017-yilda 3 foizni tashkil etgani, 2023-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 10 foizdan oshgani qayd etildi. Taqqoslama tahlil usuli orqali Skandinaviya davlatlari, Germaniya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi O‘zbekiston sharoitlari bilan solishtirildi. Trend tahlili yordamida investitsiya oqimlari va yashil obligatsiyalar hajmi vaqt kesimida o‘rganildi, masalan, xalqaro miqyosda yashil obligatsiyalar bozori 2015-yilda 50 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 500 mlrd dollardan oshgani kuzatildi. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi kabi davlat investitsiya fondlari turli sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishga YaIMning qariyb 10 foizi miqdorida sarmoya kiritgan. Bundan tashqari, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida davlat korxonalari ustun mavqega ega. Bu institutlar birgalikda “yashil” iqtisodiyot uchun foydalanilmagan investitsiyalar manbaini tashkil etadi.² Sifatli tahlil orqali O‘zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro standartlar bilan qiyoslab baholandi, xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan yashil

² Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action

<https://www.worldbank.org/content/dam/infographics/780xany/2023/apr/presentations/Uzbekistan-State-Funds-for-Climate-Action-page-uz.pdf>



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

iqtsodiyotga oid maqsadlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unligi tekshirildi. Shu bilan birga, xalqaro va milliy investitsiya oqimlari o'rtasidagi tafovutlar, moliyalashtirishning yetarli emasligi, davlat va xususiy sektor hamkorligining sustligi kabi cheklovlar qayd etildi. Tadqiqotning ayrim cheklangan jihatlari ham mavjud bo'lib, ularning eng muhimlari – ma'lumotlarning ochiq manbalarga asoslanganligi, xususiy sektor investitsiyalari bo'yicha to'liq statistik axborotning mavjud emasligi va ba'zi loyihalarning moliyaviy shaffofligi yetarli darajada ochilmaganligidir. Shunga qaramay, olingan ma'lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud bo'ldi.

O'zbekiston energiya sektori bo'yicha olingan natijalar quyidagicha ifodalanadi. Mamlakat yiliga o'rtacha 60 milliard kub metr tabiiy gaz ishlab chiqaradi, shundan 35–40 milliard kub metri “O'zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan yetkazib beriladi. 2019-yilda gaz ishlab chiqarish hajmi 60,4 milliard kub metrni tashkil etgan. Shu yili gaz kondensati ishlab chiqarish 2,1 million tonnaga yetgan bo'lib, bu an'anaviy neft qazib olish ko'rsatkichidan uch baravar yuqori bo'lgan. An'anaviy neft qazib olish 2000-yillarning boshlarida eng yuqori darajaga chiqib, keyinchalik muntazam pasayish tendensiyasini namoyon qilgan. 2000-yillardan buyon mamlakat har yili o'rtacha 10–15 milliard kub metr gaz eksport qilib kelmoqda. 2018-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, Xitoyga 8 milliard kub metr, Rossiyaga 4,5 milliard kub metr, Qozog'istonga 2,5 milliard kub metr va Markaziy Osiyo mamlakatlariga 500–550 million kub metr tabiiy gaz yetkazib berilgan. Shu bilan birga, ichki neft qazib olish hajmining kamayishi sababli qayta ishlash zavodlari uchun qo'shimcha xom neft import qilinmoqda. 2018-yilda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmining qariyb 30 foizi import orqali ta'minlangan, natijada qayta ishlash mahsulotlari ichki talabni qoplabgina qolmay, 0,13 million tonna miqdorda eksport ham amalga oshirilgan.

O'zbekistonning tasdiqlangan uglevodorod zaxiralari 20–30 yil davomida yetarli bo'lishi prognoz qilinmoqda. Mamlakatning yakuniy energiya iste'moli 2018-yilda 29,5 Mtoe ni tashkil etgan. Uy-joy sektori eng yirik iste'molchi bo'lib, uning ulushi 40% ga teng, sanoat, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi esa har biri 20% atrofida bo'lgan. Maishiy gaz iste'moli 39 milliard kub metrni tashkil etgan



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

bo'lib, iste'molchilarning yarmi suyultirilgan gazdan foydalangan. 2019-yilda mamlakatda 61,6 teravatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan, bunda 85% dan ortiq ulush tabiiy gaz hisobiga to'g'ri kelgan. Ko'mir ulushi hozirgi 3% dan 10% ga oshishi kutilmoqda. Gidroelektr stansiyalar (GES) ishlab chiqargan energiya qayta tiklanadigan energiya manbalari sifatida hisobga olinadi. Shu bilan birga, quyosh va shamol energetikasining mavjud salohiyati katta bo'lishiga qaramay, sanoat miqyosida elektr stansiyalari hali faoliyat ko'rsatmaydi. Biomassa ham umumiy statistik hisob-kitobga kiritilmagan. So'nggi yillarda ushbu segmentni rivojlantirish uchun muhim huquqiy bazalar shakllantirilgan. Jumladan, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilarni yagona elektr energetika tizimiga ulash tartibini belgilovchi nizom ham joriy etildi.³ Mamlakatda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Osiyo Taraqqiyot Banki va Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari bunga misol bo'la oladi. Ushbu tashabbuslar nafaqat energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga, balki iqtisodiy o'sishning ekologik barqaror shakllarini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil obligatsiyalar, xalqaro grantlar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalari kabi moliyaviy mexanizmlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy omilga aylanmoqda.

Bundan tashqari, energetika sektorida uglerod izini kamaytirishga qaratilgan har qanday loyiha katta miqdorda kapital talab qiladi. Masalan, bitta yirik shamol elektr stansiyasini barpo etish uchun o'rtacha 1 milliard dollarga yaqin investitsiya zarur bo'ladi. Bunday resurslarni faqat davlat byudjeti hisobidan qoplash imkoni yo'qligi uchun moliyaviy mexanizmlar, jumladan, xalqaro bozorlar orqali mablag' jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda yashil obligatsiyalar emissiyasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda xalqaro moliya tashkilotlari bilan strategik sheriklikni kengaytirishga alohida

³ Davlat statistika agentligi <https://stat.uz/ru>



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

e'tibor qaratmoqda. Moliyaviy mexanizmlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan kredit va grantlar o'ziga xos muhim rol o'ynamoqda. Masalan, Osiyo Taraqqiyot Bankining 200 million dollarlik kredit liniyasi va Jahon bankining "Scaling Solar" dasturi O'zbekistondagi bir nechta quyosh stansiyalarining qurilishida asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ilk bor xalqaro bozorga chiqarilgan 235 million yevro miqdoridagi yashil obligatsiyalar mamlakatning moliyaviy innovatsiyalar sohasidagi muhim qadamlaridan biri bo'ldi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining o'rtacha investitsiya qaytimi (ROI) 12–15 foiz atrofida bo'lib, bu an'anaviy energiya loyihalariga qaraganda yuqoriroq daromadlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari yordamida risklar taqsimlanishi investorlarning ishonchini oshirmoqda. Masalan, ACWA Power O'zbekiston energetika sohasidagi asosiy xorijiy investorlardan biri bo'lib, butun mamlakat bo'ylab keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'istonda umumiy quvvati 1,6 GVt (1,5 GVt va 100 MVt) bo'lgan ikkita shamol elektr stansiyasi qurilmoqda. Ushbu obyektlardan birining qiymati 1,65 milliard dollarga baholanmoqda.

Buxoro viloyatining Peshku va G'ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 MVt bo'lgan ikkita shamol parkini barpo etish ishlari davom etmoqda. Ikkala loyihaning birinchi bosqichi 2025-yil oxirigacha ishga tushirilishi kutilmoqda va bu maqsadlarga jalb qilingan mablag'lar hajmi qariyb 741 million dollarni tashkil etdi.⁴ Umuman olganda, natijalar ko'rsatadiki, energiya sektoridagi ekologik muammolarni hal qilish moliyaviy mexanizmlarsiz imkonsizdir. Yashil obligatsiyalar, xalqaro kredit liniyalari, donor grantlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tishda strategik vositalar sifatida shakllanmoqda.(1- Jadval)

⁴ <https://upl.uz/uz/economy/56445-news.html>



Jadval

Loyiha joyi	Loyihaning turi	Quvvati (MW)	Investor / Moliyalashtiruvchi	Qiymati (mln \$)	Holati
Navoiy viloyati	Quyosh elektr stansiyasi	100	Masdar (BAA)	100	Ishga tushgan
Samarqand viloyati	Quyosh elektr stansiyasi	220	Total Eren (Fransiya)	200	Qurilmoqda
Qoraqalpog'iston	Shamol parki	1,6 GVt	ACWA Power (Saudiya Arabistoni)	1,65	Qurilmoqda
Toshkent shahri	Elektrobus tizimi	—	ADB, Toshshahartransxizmat	—	Amalga oshmoqda

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi hanuz yetarli emas. Bu esa mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy resurslarni yanada samarali safarbar etish zarurligini ko'rsatadi. Jahon banki (2023) hisobotida qayd etilishicha, rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiy loyihalarga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning asosiy qismi xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan grantlar va imtiyozli kreditlardan iborat bo'lib, bu mexanizm O'zbekistonda ham faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ekologik investitsiyalarni rag'batlantiruvchi vositalar – yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosidagi loyihalar, ekologik kredit liniyalari – hali keng qamrovda qo'llanilmayotganini ko'rsatdi. BMT Atrof-muhit dasturining (UNEP, 2022) hisobotiga ko'ra, yashil obligatsiyalar global moliya bozorida eng tez o'sayotgan segmentlardan biri hisoblanadi va ular ekologik loyihalarga barqaror investitsiya oqimini ta'minlashda asosiy vositaga aylanmoqda. Biroq, O'zbekistonda bu vosita hali dastlabki bosqichda bo'lib, huquqiy-me'yoriy asoslar va investorlar ishonchi yetarli darajada shakllanmagan.

MUHOKAMA

Skandinaviya davlatlari tajribasi ham tadqiqotda muhim qiyosiy asos sifatida qayd etildi. Masalan, Shvetsiya va Norvegiyada davlat tomonidan qoʻllaniladigan soliq imtiyozlari, yashil subsidiyalar va majburiy ekologik standartlar iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. OECD (2021) maʼlumotlariga koʻra, ushbu davlatlarda yashil investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5–7 foizgacha yetgan boʻlsa, bu koʻrsatkich Oʻzbekistonda hozircha ancha past.(2- Jadval)

1- Jadval

Davlat	Yashil investitsiyalar ulushi (YaIM, %)	Asosiy moliyaviy vositalar	Natija (ekologik barqarorlik darajasi)
Shvetsiya	7%	Soliq imtiyozlari, yashil subsidiyalar	Yuqori
Norvegiya	6%	Yashil fondlar, ekologik grantlar	Yuqori
Oʻzbekiston	1.5–2% (taxminan)	Yashil obligatsiyalar, DXSH loyihalari	Boshlangʻich bosqichda

Shundan kelib chiqib, mamlakatda ekologik investitsiyalarni ragʻbatlantirish mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurati tugʻilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlar bilan uygʻun keladi. Masalan, Stern Review (2006) hamda keyinchalik Xalqaro Valyuta Jamgʻarmasi (IMF, 2022) tadqiqotlarida yashil investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlash, balki iqtisodiy oʻsishning yangi imkoniyatlarini yaratishi qayd etilgan. Bu xulosalar Oʻzbekistonda ham yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlash mumkinligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotning bir qator cheklavlari mavjud. Birinchidan, mavjud statistika maʼlumotlari koʻproq umumiy darajada boʻlgani sababli, ekologik investitsiyalarning aniq sektorlar boʻyicha rentabellik koʻrsatkichlari toʻliq ochib berilmagan. Ikkinchidan, yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini baholash uchun yetarli vaqt oraligʻidagi amaliy maʼlumotlar mavjud emas. Uchinchidan, moliyaviy vositalar bozorining rivojlanish darajasi ham cheklov



sifatida qaraladi, chunki bu vositalar hali keng investorlar qatlamida ommalashmagan. Kelgusidagi izlanishlar ushbu cheklovlarni bartaraf etishga qaratilishi mumkin. Jumladan, yashil obligatsiyalarning bozor ishtirokchilari uchun investitsion jozibadorligini empirik tahlil qilish, ekologik kredit liniyalarining real sektor korxonalari samaradorligiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy rag'batlarning (soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar) aniq natijalarini baholash muhim ilmiy va amaliy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tajribasi shundan dalolat beradiki, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar bosqichma-bosqich oshib bormoqda, biroq ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi hali yetarli darajada emas. Shuningdek, yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning keng qo'llanilmasligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda sezilarli cheklov bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajriba, xususan Skandinaviya davlatlarida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari, yashil subsidiyalar va ekologik investitsiya vositalari, O'zbekiston uchun muhim o'rnak bo'lishi mumkin. Jahon banki, IMF va UNEP hisobotlari shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish nafaqat ekologik xavflarni kamaytiradi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Demak, mamlakatda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish, investorlar ishonchini oshirish va huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish zarur. Shu asosda aytish mumkinki, yashil iqtisodiyot va investitsiyalarni samarali rivojlantirish O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish uchun strategik ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda aniq moliyaviy vositalarni joriy qilish va ularning amaliy samaradorligini tahlil etish bo'yicha izlanishlar olib borilishi dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qoladi.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action
<https://www.worldbank.org/content/dam/infographics/780xany/2023/apr/presentations/Uzbekistan-State-Funds-for-Climate-Action-page-uz.pdf>
2. **World Bank (2023).** *World Development Report 2023: Financing Green and Inclusive Growth*. Washington, D.C.: The World Bank.
3. EBRD (2023). *Green Economy Transition (GET) Approach 2021–2025*. London: European Bank for Reconstruction and Development.
4. ADB (2022). *Asia and the Pacific Green Transformation Report*. Manila: Asian Development Bank.
Osiyo mintaqasida yashil infratuzilma va investitsion oqimlarning tahlili.
5. UNEP (2021). *Global Green Economy Index (GGEI)*. Nairobi: United Nations Environment Programme.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-apreldagi 225-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7476205>